XALQ DEPUTATLARI PAXTAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-fevral VII-3-25-1-25-K/25 Paxtaobod tumani

Paxtaobod tumanidagi qabristonlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining 2024-yil 13-dekabrdagi 05-19-01-5779-sonli Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida Ekspert xulosasiga asosan Respublika kadastr agentligi tomonidan ro‘yxatda jami 20 ta (qabriston) geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifdan 19 ta (qabriston) geografik obyekt nomi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan. Shundan, 6 ta geografik obyekt nomi “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish” qoidalari asosida normallashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–303-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Paxtaobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga talablariga muvofiqligi haqida ekspert komissiyasi xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil 13-dekabrdagi 05-19-01-5779-sonli Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida ekspert komissiya xulosasida O‘zbekiston Respublikasining “Geografik

obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-son qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb ko‘rsatilgan 19 ta geografik obyektning nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Arabboyev), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik bo‘limi (Mamasoliyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Ostonaqulov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari maqbullashtirilgan qabristonlarni, shuningdek, yangidan nomlangan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik bo‘limi (Mamasoliyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Ostonaqulov) bilan birgalikda hududlarda nomlari maqbullashtirilgan, yangidan nomlangan qabristonlarni nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mahalla uyushmasi (Shovvozov), mahalla fuqarolar yig‘inlari (raislari) bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi nomsiz qabristonlarning nomlanishi munosabati bilan aholi o‘rtasida tushunturish-targ‘ibot ishlarini olib borsinlar.

6. Tuman hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (J.Sarimsoqov) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalariga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

7. Qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi

BABAYEV
SHOYADBEK
XASANBOYEVICH

Xalq deputatlari Paxtaobod tumani Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-3-25-1-25-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Paxtaobod tumanidagi Qabristonlarni nomlashi bo‘yicha

RO‘YXAT

T/R	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiya tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	Qabriston	Navro‘z mahallasi	Nomsiz	Mamarasulota	**Mamarasulota** Navro‘z mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson.
2	Qabriston	Do‘ngqishloq mahallasi	Nomsiz	Do‘ngqishloq	**Do‘ngqishloq** qabristoni tepalikda joylashgani uchun qadimdan mahalla orasida shu nom bilan atab kelingan.
3	Qabriston	Lolazor mahallasi	Nomsiz	Shodmonbek	**Shodmonbek** Lolazor mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson
4	Qabriston	Iltifot mahallasi	Nomsiz	Hurboyota	**Hurboyota** Iltifot mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson
5	Qabriston	Paynob mahallasi	Nomsiz	Yuqori Paynob	**Yuqori Paynob** Qabristoni Paynob mahallasida joylashgan bo‘lib ariq jilga‘lar quyisidagi joy
6	Qabriston	Paynob mahallasi	Nomsiz	Quyi Paynob	**Quyi Paynob** Qabristoni Paynob mahallasida joylashgan bo‘lib ariq jilga‘lar quyisidagi joy
7	Qabriston	Ahillik mahallasi	Nomsiz	Otaqo‘zihoji	**Otaqo‘zihoji** Ahillik mahallasida yashagan Otaqo‘zi hoji madrasisi qurilishida mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborli inson bo‘lgan.

8	Qabriston	Soybo‘yi (Sohil) mahallasi	Nomsiz	Badalota	**Badalota** Soybo‘yi mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson
9	Qabriston	Tinchlik mahallasi	Nomsiz	Turbodota	**Turbodota** Tinchlik mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson.
10	Qabriston	Chorsu mahallasi	Nomsiz	Chorsu	**Chorsu** qabristoni Chorsu mahallasida joylashgan bo‘lib halq orasida qadimdan Chorsu nomi bilan atab kelinadi.
11	Qabriston	Bodrag‘obod mahallasi	Nomsiz	Nizomota	**Nizomota** Bodrag‘obod mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson.
12	Qabriston	Bodrag‘obod mahallasi	Nomsiz	Abdumalikota	**Abdumalikota** Bodrag‘obod mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson.
13	Qabriston	Olmazor mahallasi	Nomsiz	Ubaydullaxo‘ja	**Ubaydullaxo‘ja** Olmazor mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson.
14	Qabriston	Guldiyor mahallasi	Nomsiz	Xo‘ja Razzoqota	**Xo‘ja razzoqota** Paxtaobod tumanida yashagan 5 aka-uku pirlardan biri bo‘lib Guldiyor mahallasi hududida odamlarga ko‘p yaxshilik qilgan mahallaga suv olib kelgan, ulug‘ inson hisoblanadi
15	Qabriston	Yangiobod mahallasi	Nomsiz	Yangiobod	**Yangiobod** qabristoni Yangiobod mahallasida joylashgan bo‘lib arab qishloq aholisi bu yerlarga dafn etilib kelingan ular bu yerlarni obod qilganlar halq orasida qadimdan Yangiobod nomi bilan atab kelinadi.
16	Qabriston	Bo‘stonobod mahallasi	Nomsiz	Abdumo‘minota	**Abdumo‘minota** Bo‘stonobod mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson uning avlodlari qabristonni obod bo‘lishida doim katta hissa qo‘shib kelmoqda.
17	Qabriston	Navbahor mahallasi	Nomsiz	Qiyrasinota	**Qiyrasinota** Navbahor mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson uning avlodlari qabristonni obod bo‘lishida doim katta hissa qo‘shib kelmoqda.
18	Qabriston	Navbahor mahallasi	Nomsiz	Ismoiljonota	**Ismoiljonota** Navbahor mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson uning avlodlari qabristonni obod bo‘lishida doim katta hissa qo‘shib kelmoqda.

19	Qabriston	Durdiyor mahallasi	Nomsiz	Jo‘raboyota	**Jo‘raboyota** Durdiyor mahallasida yashagan mahallaning obod bo‘lishida katta hissa qo‘shgan, mahallada obro etiborga ega qabristonga birinchi dafn etilgan inson.